



“SSENARIY” PEDOGOGIK TEXNOLOGIYASINI “AVTOMOBIL YO‘LLARINI
AVTOMATLASHTIRILGAN LOYIHALASH” FANIDA QO‘LLASH

A.X.Karimov

Sh.P.Turdiyev

Toshkent davlat transport universiteti 2-bosqich magistrantlari

I.S.Sodiqov

Toshkent davlat transport universiteti proffessori t.f.d., ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Bugungi kunda avtomobil yo‘llari muhandisligi bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘pgina zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu maqolada “Ssenariy” pedagogik texnologiyasining afzalliklari uni qo‘llanish tartibi, qo‘llashda talab etiladigan qonun qoidalar va ushbu texnologiyadan samarali foydalanish yo‘riqnomasi keltirilgan. Shuningdek “Ssenariy” pedagogik texnologiyasini amalda bakalavr boshqichi talabalariga qo‘llash jarayoni tasvirlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Ssenariy” texnologiyasi, matiqiy fikrlash, tarqatma material, metodika, pedagogik texnologiya, mustahkamlash, yakuniy nazorat.*

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o‘qitish tizimini qat‘iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta‘rifiga ko‘ra «pedagogik tizim ma‘lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko‘zlab va oldindan o‘ylab pedagogik ta‘sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisidir».

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasi, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta‘lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o‘qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, o‘quvchi-talabalarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi. Bugungi kunga kelib, o‘qituvchi (pedagog)lar metodikani ko‘p hollarda texnologiyadan ajrata olmayptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo‘ladi. Metodika (uslubiyat) o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasidan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lida o‘qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta‘limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig‘indisidir. Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta‘riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda ushbu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo‘lgan urinishlarning ma‘lum natijasini ifodalaydi. Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta‘minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo‘l ochadi.



Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi[1].

Maxsus fanlarni o'qitishda, yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni olib borish yaxshi natija beradi, ya'ni, ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni interfaol o'yinlar orqali uyg'unlashtiriladi. Buning natijasida o'tiladigan mavzu talabanning ko'z o'ngida uzoq vaqt saqlanishi tajribada o'rganildi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar[2,3].

«Ssenariy» texnologiyasining maqsadi: talabalarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, turli shakldagi yakka va jamoaviy ijodiy faoliyatni egallash, o'tkaziladigan tadbirlarni oldindan rejalashtirish, senariysini tuzish, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'nikma, malaka hosil qilish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulotning har bir qatnashchisi yakka holda ishlash uchun tayyorlab kelgan tarqatma material (kartochka)lardan bittasini tanlab oladi, kartochkalarda talabalar uchun turli xil tadbirlarning mavzusi berilgan bo'lib, ular shu mavzuda o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadbir haqida yakka holda boshqarishlari, uning mazmuni, o'tkazilish tartibining turli shakllarini aniqlashlari hamda shu tadbirning reja senariysini ishlab chiqishlari kerak.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida talabalar o'zlari yakka holda tuzgan reja-senariylari bilan kichik guruhlar ajraladilar. Ular o'z ishlarining natijasi bilan guruh a'zolarini birma-bir tanishtiradilar, ishlab chiqilgan reja-senariylarga baho beradilar berilgan reja-senariylarni to'ldirib, to'g'rilab, ular ichidan bitta variantni tanlab oladilar. Keyin kichik guruhlar birgalikda tanlangan tadbirning reja-senariysini ishlab chiqadilar.

Vazifalarni bajarish mobaynida guruh a'zolari, yakka tartibda ijodiy yondashib, tayyorlangan reja-senariylarni e'tiborga olgan holda hamda ular ichidan tanlab olingan senariy bo'yicha taqdimod tayyorlanadilar. Har bir guruh birgalikda tayyorlagan senariylarini himoya qiladi. Himoya vaqtida guruh a'zolari (yoki guruh vakili) talabalar auditoriyasining savollariga javob berishi yoki o'z variantlarida qolishlari mumkin. Taqdimot tugagach; talabalar himoya qilingan loyihalarni birgalikda muhokama qiladilar va yakunlaydilar. O'qituvchi har tomonlama yaxshi, kiziqarli tuzilgan senariylarni keyinchalik amalga oshirish uchun tashkilotchilarga tavsiya etadi[4].

Yuqorida ko'rsatilgan pedagogik texnologiya Toshkent davlat transport universitetining Avtomobil yo'llarini qidiruv va loyihalash kafedrasida Avtomobil yo'llarini avtomatlashtirilgan loyihalash fanidan "Joyning raqamli modeli (JRM) turlari va ularni tuzish" mavzusida bakalavr bosqichi talabalariga qo'llanildi. Bunda talabalarning tanqidiy fikrash, muammoni jamoaviy hal etish, o'z fikrini tushuntirib bera olish kabi qobiliyatlari namoyon bo'ldi.



Dars mashg'uloti boshida talabalarga o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish maqsadida avvalgi dars mashg'ulotlarini takrorlash va endi o'tiladigan "Joyning raqamli modeli (JRM) turlari va ularni tuzish" mavzusi bo'yicha savol javoblar olib borildi. Bunda har qatnashgan bir talabaga rag'batlantirish qatnashmagan ba'zi talabalarga esa dars mashg'ulotiga targ'ib qilish maqsadida individual savollar berildi. Har bir talabaga joyning raqamli modeli tushunchasi haqida fikrlashga diqqatni oshirish maqsadida joyning raqamli modelini chizish uchun yozuv varaqalari tarqatildi. Bunda talabalar o'zlarining joyning raqamli modeli to'g'risidagi g'oyalarini namoyon qilishdi. So'ngra talabalarga mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun 20 daqiqa vaqt belgilandi. Talabalar o'zlari tuzgan joyning raqamli modelini tushuntib berganlaridan so'ng, o'qituvchi qisqacha tarzda har bir talabaning ishiga baho berdi. Bu jarayonda har qanday faoliyat standart talabalar asosida nazorat qilindi, talabalar bir birlarini fikrlarni baholashga yo'l qo'ymadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni dars jarayoniga qiziqishini oshirish va dars mashg'ulotlarini tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. "Ssenariy" pedagogik texnologiyasini qo'llash orqali talabalarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon eta olish va mantiqiy fikr bildirish kabi qobiliyatlari namoyon bo'lib, bilim va ko'nikmalari ortishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov//Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat// Toshkent-2009 240 bet
2. B.A.Mamurov, M.G.Mamayunusova, R.N.Ibrohimova//Texnik ta'limda darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash//Ijodkor o'qituvchi jurnali//Farg'ona shahri, 2022-yil
3. S.S.Sobirjonov, I.B.Xoshimov//"Aqliy xujum" pedagogik texnologiyasini "avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish" fanida qo'llash//Journal of innovations in scientific and educational research volume-2, issue-16 (30-march)
4. Q.X.Azizov//"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"//O'quv qo'llanma//TAYLQEI Toshkent-2019 y
5. <http://www.hozir.org/download/ixbisoslikka-kirish.doc>